SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Volume 2, Issue 1 March 31, 2023

TA’LIM BILAN QAMRAB OLINMAGAN AHOLIGA SOG‘LOM FIKRLARNI YETKAZISHNING SAMARALI PSIXOLOGIK USULLARI

Nodira Shodiyeva Normamatovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
shodiyevan22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta’lim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamlari orasiga targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali usullarini tashkil etish orqali ularda sog‘lom fikrlarni shakillantirish, mamlakatimizda olib boriladigan islohotlar, qabul qilinayongan qonun-qarorlar, konsepsiyalar va ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish keltirib o‘tilgan. Ta’lim bilan qamrab olinmagan aholi orasida targ‘ibot–tashviqot ishlarini tashkil etishda mahalla tizimi yetakchi o‘rin egallashi, mahallalarda ziyolilar, olimlar ishtirokida olib boriladigan davra suhbatlari, ekologik madaniyatni shakllantirish, 5 ta muhim tashabbus va uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi doirasida amaliy faoliyat yuritish, ajdodlarimizni boy ma’naviy merosini o‘rganish va kelajak avlodga yetkazib borish kabi masalalarga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: targ‘ibot tashviqot, islohot, ma’naviy tarbiya, amaliy faoliyat, motivatsiya, ekologik burch, texnologiya, tashabbus.

Annotation: In the article, by organizing effective methods of propaganda work among the strata of the population that are not covered by education, forming healthy thoughts in them, reforms carried out in our country, laws and decisions to be adopted, concepts and changes in the field of education delivery to the general public. Within the framework of 5 important initiatives and the concept of continuous spiritual education, the neighborhood system takes a leading place in the organization of propaganda and propaganda work among the population that is not covered by education, roundtable discussions with the participation of intellectuals and scientists in the neighborhoods, the formation of ecological culture. issues such as practical activities, studying the rich spiritual heritage of our ancestors and passing it on to the next generation were touched upon.

Keywords: propaganda, reform, spiritual education, practical activity, motivation, ecological duty, technology, initiative.

Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy

bilimlarni o‘zlashtirish chinakam ma’rifat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.[1]. Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakillantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota –onalarga tarbiya usullarini o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkaziladi[2] Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomasida ham jamiyatimizdagi islohotlar haqida aloxida to‘xtalib o‘tilgan - Biz yangi O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug‘vor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada “Jamiyat islohotlar tashabbuskori ” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarni amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizni yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim.[3] Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga va aholini turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator qonunlar, qarorlar va konsepsiyalar qabul qilinib kelinmoqda. Jamoat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan shaxslar jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, yangiliklar va modernizatsiya jarayonlaridan doimiy ravishda xabardor bo‘lib boradilar va o‘zlari ham bu jarayonning bevosita ishtirokchisidirlar. Qabul qilinayotgan qonunlar va konsepsiyalarni amalda ijrosini ta’minlash uchun esa barcha fuqorolar birdek ma’suldirlar. Xo‘sh jamiyatimizdagi bu kabi islohotlardan qabul qilinayotgan qonun va qarorlardan ta’lim bilan qamrab olinmagan,yoki davlat tashkilotlarida faoliyat yuritmaydigan,va doimiy ravishda ishsiz yurgan aholi qatlamlariqay tariqa xabardor bo‘lib boradilar? Ular bu jarayonlarga o‘z munosabatlarini bildira oladilarmi? Yana bir inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat borki fuqorolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakillanishi kerak. Ana shundagina ko‘zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo‘yilgan vazifalarning to‘liq uddasidan chiqamiz.[4] Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida ham aholi bilan doimiy muloqot qilish, uning qonuniy talablari, so‘rov va takliflarini amalga oshirish uchun aniq choralar ko‘rishni ustivor vazifa deb ta’kidlab o‘tganlar. Yurtimizda turli sohalarga oid olib borilayotgan islohotlar xususan ta’lim – tarbiya tizimi sohasidagi o‘zgarishlar, modernizatsiya jarayonlarini keng jamoatchilikka shu jumladan ta’lim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamlari orasiga targ‘ib qilinishi bugungi kunning eng dolzab muammolardan biridir.

Mamlakatimizning viloyat va shaharlarida buyuk namoyondalarimiz, shoirlar nomi bilan yuritiladigan yangi turdagi maktablarni, jumladan Toshkent shahrida

Prezident, Mirzo Ulug‘bek maktablari, Jizzaxda - Hamid Olimjon va Zulfiya, Andijonda - Muhammad Yusuf, Namanganda – Ishoqxon Ibrat, Qashqadaryoda - Abdulla Oripov, Sirdaryoda - Halima Xudoyberdiyeva, Farg‘onada – Erkin Vohidov, Samarqandda - Hadis maktablarini tashkil etilayotganligi ham aynan ta’lim tizimi sohasini yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlardandir. Joylarda tashkil etilayotgan bu kabi maktablarning ijodiy faoliyatlari mutloqo yangicha mazmun va shaklga ega ekanligi, undagi imtiyozlar xususidagi axborotlarni aholining barcha qatlamlari orasiga targ‘ib etib borilishi ham dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Mavzuning maqsadi: Ta’lim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamlari orasiga, targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali usullarini tashkil etish orqali ularda sog‘lom fikrlarni singdirib borish. Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning eng muhim vositalaridan biri mahallalarda aholini, hamjihat, hamfikr va ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashtirish hisoblanadi. 1993-yil 17-avgustda O‘zbekiston — Mahalla xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-fevral kuni qabul qilingan — “Mahalla insitutini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni milliy qadriyatlar beshigi bo‘lmish mahallalarning xalqimiz hayotidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish borasida muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki dunyoda noyob o‘xshashi, yo‘q mahalla tizimi mustaqilliq yillarida aholiga eng yaqin va haqchil tizimga aylandi. Qaysi mahallada ish to‘g‘ri tashkil etilib fuqorolar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lsa o‘sha yerda hamjihatlik mehr oqibat muhiti hukum surmoqda, nohush holatlarga yo‘l qo‘yilmayapti [5].

Targ‘ibotning eng samarali usullaridan biri xalq ichiga faol kirib borish ya’ni aholi bilan yuzma-yuz bevosita suxbatlar olib borish.lozim. Davra suhbatlariga xalq ishonchini oqlagan olimlar, ziyolilar, mehnat fahrilarini taklif etib aholiga davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, jamiyatimizda olib borilayotgan turli islohotlar, jumladan 5 ta muhim tashabbus va uning amaliy ahamiyati xususida ma’lumotlar berilib, fikr almashinishi o‘rinlidir. Suhbat davomida yoshi ulug‘ ziyolilarni mahalla ahliga beradigan pand-nasihatlari, oqilona o‘gitlari insonlarga sog‘lom fikrni shakkillantiradi. Ularda jamiyat rivoji uchun o‘zlarining munosib hissalarini qo‘sha olishlariga motivatsiya uyg‘otadi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqoroni jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bu avvalo, shu jamiyatning barcha a’zolari uchun, qolaversa o‘z farzandlari kelajagi uchun xizmat qiladi.

Targ‘ibotni samarali kechadigan jarayoni ta’lim-tarbiyani oila muhitida olib borilishi o‘z natijasini beradi. Inson dastlabki hayot haqidagi bilimlarni oila muhitida oladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da oila, nikoh, farzand tarbiyasi masalalariga masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Bola asosan oila muhitida tarbiyalanib inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) hisoblanadi[6].

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi bosh qomusimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Oilada sog‘lom muhitni tashkil etilishi shu oila tarbiyalanuvchilarini har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlariga asos bo‘ladi. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda ularni salomatligini saqlab turishdan iboratdir[7].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori uzuliksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida oilaviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma’naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil yetish asosida na’munaviy oilaviy tarbiya muhiti mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o‘tkazish lozimligi belgilab qo‘yilgandir.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham o‘z faoliyatlari davomida harbiy yurishlarda, davlatni boshqarishda doimo amiru-ulamolar bilan kengash tuzib, ular bilan fikr almashib keng mulohaza yuritganlar. Jamoatchilik fikrini o‘rganayotganda uchta omilga ahamiyat berish lozim: birinchi omil-so‘rovda ishtirok etayotganlarning mazkur so‘rovdan ijtimoiy manfatdorligi; ikkkinchi omil - bahs munozaraga sabab bo‘ladigan vaziyat; uchinchi omil - so‘rovda ishtirok etayotganlar mazkur jarayonga nisbatan aniq fikrga egaligi.

Ta’lim bilan qamrab olinmagan aholiga targ‘ibot tashviqot ishlarini samarali tashkil etishning usullaridan yana biri bu ommaviy axborot vositalaridir. Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta’sirchan vositasiga,xalqning eng yaqin ko‘makchisi va hamdardiga aylanishi zarur[8.] Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilik fikriga tez va kuchli ta’sir eta oladi. Chunki har bir oilada ommaviy axborotlardan foydalaniladi va insonlarning ma’lumot olish manbai bo‘lgan bu vositalar orqali xalqimizga jamiyat sohasidagi eng so‘nggi yangiliklarni, diniy, dunyoviy bilimlarni va qolaversa, jahonda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni yetkazib berish qulayroqdir. Hozirda jamiyatimizning barcha soxalarida olib borilayotgan 5 ta muhim tashabbusning

uchinchi yo‘nalishi ya’ni aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnalogiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilganligi ham aynan aholining barcha qatlamlari vakillarini bu vositalardan foydalanishga undaydi va texnikani bugungi kunda hayotimizdagi o‘rni naqadar muhim ekanligini anglab yetishlariga turtki bo‘ladi.

Badiy adabiyot orqali ham xalqimizga vatanparvarlik, sabr-qanoat halollik, sadoqat kabi fazilatlarni singdirish mumkin. Biz bugun kitobxonlik madaniyatini oshirish, ilmiy, badiy, siyosiy, adabiyotlarni ko‘paytirish maslalariga alohida e’tibor beryapmiz. Ammo bu ishlarni har tomonlama puxta o‘ylab amalga oshirishimiz, boshlagan oliyjanob harakatimizni obro‘sizlantirishga yo‘l qo‘ymasligimiz shart[9].

Ajdodlarimizni qoldirgan boy ma’naviy merosini o‘rganishni aholi orasiga targ‘ib etilishi ular ongida sog‘lom fikrlarni shakillanishiga asos bo‘ladi. Jumladan Imom Buxoriy, Imom Termiziy hazratlarini hadis ilmiga oid, ibn Sinoning tibbiyot ilmiga oid, Abu Nosir Forobiyning ta’lim-tarbiya masalalariga oid asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bu asarlar turli soha vakillari uchun asosiy qo‘llanma vazifasini ham o‘tab kelmoqda. Xususan Ibn Sinoning Tib qonunlari kitobi nafaqat mamlakatimiz balki chet eltibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ham darslik sifatida foydalaniladi.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishning yana bir muhim usuli bu - aholini tabiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatini oshirishdan iboratdir. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Otashparaslikning muqaddas kitobi Avestoda ham suv, yer, olov, havo muqaddas unsurlardan sanalgan. Agar tevarak-atrofga nazar tashlasak, bizni o‘rab turgan barcha narsalar insonni zavqini keltirib, bahri-dilini ochadi. Mana shu tabiat go‘zalliklarini barchasi inson qo‘li bilan yaratilganining guvohi bo‘lamiz. Bu qo‘llarga ofarin va tasanno aytging keladi. Ammo ko‘pgina hollarda ba’zi mahallalarda, xo‘jaliklarda, yoki korxona-tashkilotlarda toza ichimlik suvining behuda oqib isrof bo‘layotganligini guvohi bo‘lamiz. Bu albatta achinarli holdir. Buning birgina sababi esa insonlarda ekologik madaniyatni yetarli darajada shakillanmaganligidir. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun har bir mahallada ko‘cha boshilari tomonidan nazorat guruhlari tashkil etilib aholi orasiga tushuntirish ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Suv tabiatning bebaho ne’mati ekanligi, uni tobora kamayib borayotganligi, dunyoning ayrim mamlakatlarida toza ichimlik suvining nihoyatda tanqis ekanligi, suvni isrof

yoki iflos qilganlar dinimizda ham qattiq qoralanishi, suv resurslaridan oqilona foydalanish tartibini buzganlik uchun ma'muriy jazo turlari mavjud ekanligini har bir ongli fuqoro nafaqat o'zi balki kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodga ham uqtirib borishlari darkor. Vaholangki, Allohni nazari tushgan shunday zaminda, to'kin-sochinlikda yashayotganligimiz uchun shukrona keltirsak arziydi. "Qaysiki musulmon ko'chat o'tqazsayoki ekin eksa, undan odamlar qushlar va hayvonlar ist'mol qilsa, bu ish uning uchun sadaqa bo'ladi". Tabiy boyliklarimiz bo'lmish suv, tabiy gaz, elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish, shifobaxsh o'simliklar turlarini asrash va ko'paytirish, noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlarni muhofaza qilish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirishhar bir kishini ham insoniylik ham ekologik burchi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Yuqoridagilar asosida shuni ta'kidlash lozimki talim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamlari orasiga targ'ibottashviqot ishlarini samarali usullarini tashkil etish orqali ularni mamlakatimizda olib boriladigan islohotlardan, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlardan, qabul qilinadigan qonun va qarorlardan xabardor etib boriladi. Bu o'rinda mahalla tizimi yetakchi o'rin egallaydi. Mahallalarda davra suhbatlari, turli mavzularga doir sovrinli tadbirlarni tashkil etib borilishi shu mahallada istiqomat qiladigan har bir fuqoroni faollikka undaydi. Jumladan aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish asosida tashkil etilgan targ'ibot-tashviqot ishlari ham kishilarni o'z tomorqa yerlaridan unumli foydalanishlariga, uy hayvonlarini boqish va ularni turlarini ko'paytirishga, tabiy boyliklardan unumli foydalanishlariga, o'z xonadonlari va mahalla guzarlarini ozoda saqlashlariga asos bo'ladi. Davra suhbatlarida ziyolilarni taklif etilishi va aholiga to'g'ri tavsiyalar berib borilishi insonlarga sog'lom fikrlarni shakillantirib boradi. Sog'lom va mustaqil fikrga ega bo'lgan jamiyat a'zolari esa yurtimiz tinchligi va ravnaqi yo'lida xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 .O'zbekiston Respublikasi Prezdenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. 2020 y.

2. O'zluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi 31-dekabr 2019-y.

3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent-2019. -134 v.

4. Zunnunov A., Xayrullayev M., To'xliyev B., Hotamov N., Pedogogika tarixi. Toshkent-2000. - 56-57 b.

5. Ibragimov X., Abdullayev Sh., Pedogogika nazariyasi. Toshkent-2008. - 85 b.

6. Kenjaboyev A., Bo'lajak o'qituvchilarni iqtisodiy-innavatsion tarbiya berishga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari. Surxon-Nashr‖ 2019. - 109 b

7. Imom Termiziydan qirq hadis. Toshkent-2018